# O‘QUVCHILARGA MAQOLLARNI O‘QITISHNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

**M.Xolmatova**
*Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*
**Mirzaxokimova Manzuraxon Bannobjon qizi**
*QDPI talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada o‘quvchilarga maqollarni o‘qitishning lingvistik xususiyatlari borasida so‘z boradi. Maqollar o‘zbek xalq og‘zaki ijodining ommaviy janrlaridan biridir. Asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan maqollar xalqimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo‘lgan munosabati, axloqiy me’yorini, tarixi va ruhiy holatini ifodalaydi.*

**Kalit so‘zlar**: *maqol, xalq og‘zaki ijodi, matn, onglilik, faollik, ilmiylik.*

Maqollar o‘zining tuzilishi jihatidan qisqa, lo‘nda, puxta, mantiqli, fikran tugallangan va siqiq ishlangan bo‘ladi.

Ma’lumki, maqollar o‘quvchilar nutqini o‘stiradi, so‘z boyligini orttiradi. Maqollar xalqimizning u yoki bu masala yuzasidan chiqargan hukmini bolalar ongiga etkazishda o‘qituvchiga yordam beruvchi ekspreesiv vositalardandir. Xalq maqollarining ma’nosi, tuzilishi va uning shakli bilan o‘quvchilarni tanishtirib borish ta’lim-tarbiyaning samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning til ilmini rivojlantiradi.

O‘quvchilar grammatika, imlo va nutq o‘stirish darslarida, maqollarni grammatik jihatdan to‘g‘ri yozishga o‘rganibgina qolmasdan, balki uning tuzilishi, gap holidagi ma’nosi va mantiqiy kuchi bilan tanishadilar. O‘qish va nutq o‘stirish darslarida esa maqol matnini to‘g‘ri va ongli o‘qish malakalari beriladi. O‘quvchilar mazkur darslarda maqollardagi har bir so‘zning ma’nosi va maqolning to‘la, mukammal ma’nosini izchil idrok etishga odatlanadilar. Maqol matni ustida ishlash bilan maqollarning yaratilishi, maqol yaratishdagi xalqning maqsadi va xalq maqollarining ko‘rinishi, uning oddiy gapdan farqi kabilar bilan tanishadilar. Maqollarni o‘rganish darslarida o‘qituvchi o‘quvchilar faolligiga suyanadi. O‘qituvchi ta’lim nazariyasining onglilik va faollik ilmiylik, izchillik, nazariyaning amaliyot bilan birligi, ta’lim va tarbiya birligi; ko‘rsatmalilik kabi printsiplariga suyanadi.

Maqollarni o‘rganishda o‘qituvchi og‘zaki bayon etish, suhbat, og‘zaki va yozma mashq ishlash metodlaridan unumli foydalanadi.

Maqollarni o‘rganish maqollarning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lganligi uchungina emas, balki matnda maqollarning mavjudligi uchun va uning ma’no jihatidan xilma-xil ko‘rinishga ega bo‘lganligi, matn mazmunini to‘latish tufayli ham

o‘rganiladi. Maktabda o‘quvchilarga maqol va hikmatli so‘zlarni o‘rgatib borilsa, ularning ma’nolari tushuntirilsa, darsning g‘oyaviyligi oshadi.

Maqollarni o‘rganish ishi o‘qituvchidan ma’lum tayyorgarlikni talab etadi – darsga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida mavzuga doir maqollarni eslash va ulardan foydalanishning metodik usullarini, manbalarni bilish zarur bo‘ladi.

Ma’lumki, maqollar fondining boyishida yozma adabiyot katta rol o‘ynaydi. Ulug‘ so‘z san’atkorlari va olimlarning ba’zi so‘zlari davr o‘tishi bilan sayqal topib, maqolga aylanadi.

Ilg‘or o‘qituvchilar darslikdagi maqollarning anglatgan ma’nosi va tuzilishini yaxshi biladilar, undan o‘rinli foydalanadilar.

Boshlang‘ich sinf darsliklarida berilgan maqollar biror mavsum yoki ma’lum bir katta mavzu hamda she’r va hikoyalarning mazmunini ochishga qaratiladi.

Matn mazmunini ochuvchi maqollar quyidagi tartibda o‘rganiladi:

a) o‘qilgan matn ichidan maqollarni topish, mazmunini matn mazmuniga qiyoslash;

b) maqol mazmuni asosida og‘zaki insho yoki og‘zaki hikoya tuzish;

v) insho yozishda va insho ustida ishlashda maqollardan foydalanish.

Maqollarni tanlash va o‘rganishda “Alifbe”, «O‘qish kitobi», «Ona tili» kabi darsliklar, kichik yoshdagi bolalar uchun «O‘qituvchi” nashriyoti tomonidan chiqarilgan badiiy asarlar, “Tong yulduzi” gazetasi, «G’uncha», «Gulxan» jurnallari o‘quvchilar uchun boy manba hisoblanadi. O‘quvchilar ko‘rsatilgan adabiyotlarni o‘rganar ekanlar, o‘qituvchi rahbarligida maqollarga alohida ahamiyat beradilar: ularni yod oladilar, mazmunini anglab boradilar.

Maqol xalq og‘zaki ijodining boshqa turlari kabi alohida bir janrdir. Bu janr ham xalqning tarixini, maishiy hayotini, undagi mavjud voqealarni, xarakterli hodisalarni umumlashtiradi. Binobarin, maqollar darsning xilma-xil etaplarida o‘rganiladi.

Maqollarni o‘rganishning barcha etaplarida ta’limning ko‘rsatmalilik va ilmiylik printsiplari bilan bir qatopda, nazariyaning amaliyot bilan birligi, ta’lim va tarbiya birligi printsiplariga to‘la amal etiladi.

Maqollarning mazmuni va tuzilishi tahlil etilar ekan, maqollarning mazmun jihatidan keng, tuzilish jihatidan qisqa, umuman hikmatli gap ko‘rinishida ekanligi suhbat metodida bayon etiladi. Bu bilan o‘quvchilarni ilmiy bilimlar bilan qurollantirilibgina qolmasdan, balki o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan maqol haqidagi mazkur bilimlar asosida o‘quvchilarda umuminsoniy dunyoqarash va ma’naviy sifatlar tarkib toptiriladi. Bu esa, o‘quvchilarning aqliy kamoloti va qobiliyatini yanada rivojlantirishga ulkan hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Maqollar mazmuni asosida beriladigan tarixiy bilimlar o‘quvchilarni g‘oyaviy jihatdan tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Buning natijasida o‘quvchilar o‘zlarining jamiyatda tutgan o‘rinlari, ma’naviy sifat va fe’l-atvorlarini to‘g‘ri belgilay olish imkoniga ega bo‘ladilar.

Bolalarning maqollarni oʻrganishining koʻrinishlari quyidagicha:

1. Maqollarni darsda va sinfdan tashqari mashgʻulotlarda oʻqiydilar, grammatik tahlil etadilar, matn mazmuni bilan maqol mazmunini qiyoslaydilar. Mazmunan tahlil etadilar. Maqollarning xalq ogʻzaki ijodiga mansub ekanligini biladilar, uning tuzilishi haqida maʼlum tasavvur hosil qiladilar.

2. Oilada kattalardan eshitgan maqollarning maʼnosini tushunishga hapakat qiladilar va oʻz axloqlarini maqol mazmuniga qiyoslab boradilar.

3. Koʻchada va boshqa jamoat joylarida maqolning hayotiyligi bilan tanisha boradilar, oʻz nutqlarida maqolni ixtiyoriy, baʼzan beixtiyor ishlatadilar.

“Ona tili” darsliklarida mashq matni sifatida berilgan xalq maqollarini leksik tahlil etish jarayonida oʻquvchilarga taʼlim berish bilan birga, undan tarbiya vositasi sifatida ham foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda amaldagi darsliklarga kiritilgan maqollar ona tili va oʻqish darslari uchun berilgan matn maʼnolarini ochishga, oʻquvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, oʻqish darsini ona tili darsi bilan bogʻlashga xizmat qilmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**


1. Nizamova, S. H. "The Role of Pedagogical Games in the Personal Development of Primary School Students." International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
2. Nizamova, Sh U., and Munosibxon Ganieva. "Didactic Basics of Teaching Elementary School Technology Science." International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
3. NIZAMOVA, SHAHNOZA, and MUNIRA AKBAROVA. "LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF SOME NICKNAMES." THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука 10: 563-565.
4. Nizami, Shahnaza Obeydullaevna, and Rovshan Surobjonovna Egamova. "Improving the Efficiency of Extracurricular Work in Technology Lessons in Elementary Grades." International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
5. Ubaydullaevna, N. S., Mehmonalievich, T. A., Mamirovna, H. K., & Nosirovna, N. D. ON THE PRINCIPLES OF CATEGORIZATION OF WORDS.
6. Nizamova, S. H. The Role of Pedagogical Games in the Personal Development of Primary School Students. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
7. Nizamova, S., & Turakhojayeva, A. (2023). “MAJOLIS UN-NAFOIS” BY A. NAVOYI IS ONE OF THE IMPORTANT SOURCES OF UZBEKIN NICKNAMES.

8. Shakhnoza, N., & Sevara, O. (2022). LINGUISTIC ANALYSIS OF PSEUDONYMS OF UZBEK WOMEN IN THE FIELD OF CREATIVTY AND ART. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 294-298.

9. Shahnoza, N. (2023). ADABIY TAXALLUSLARNING YUZAGA KELISH OMILLARI. *" ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION*, *10*(1).

10. Shahnoza, N. (2023). ADABIY TAXALLUSLARNING VAZIFALARI. *" GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS*, *9*(1).

11. Nizamova, S. U., & Bahodirovna, G. (2023, November). BOSHLANG ‘ICH MAKTABDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIM. In *" CANADA" INTERNATİONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS İN EDUCATİON, SCİENCESAND HUMANİTİES* (Vol. 9, No. 1).

12. Nizamova, S., & Maftuna, X. (2023, November). ILM-FAN TARAQQIYOT ASOSI. In *" USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE* (Vol. 8, No. 1).

13. Abdulkhayeva, M. The Role of Dictations in the Development of Students' Written Speech in the First Class. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.

14. Musharrafa, A. (2023). Relationship of Mother Language and Reading Literacy with Natural Science. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(3), 78-82.

15. Abdulxayeva, M. (2023). ONA TILI VA O ‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK METODLARNING TUTGAN O ‘RNI. Scienceweb academic papers collection.

16. Abdulxayeva, M. (2023). O’Z DIKTANT YOKI YODDAN YOZUV DIKTANTI. Interpretation and researches, 1(1).

17. Akbarova, X. (2023). ASQAD MUXTOR IJODINING O’ZIGA XOSLIGI. Interpretation and researches, 1(1).

18. AKBAROVA, X. (2023). LINGVOPOETIKA SOHASINING VUJUDGA KELISHI VA NAZARIY MASALALARI. Comparative Turkish Dialects and Literatures, 1(3), 27-32.

19. Alijonovna, M. D., & Gozalkhan, Y. (2022). IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARITY IN THE TEACHING OF READING AND NATURAL SCIENCES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1628-1632.

20. Alijonovna, M. D. (2023). Terms-language wealth. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION, 2(3), 58-62.

21. Dilafruz, M. (2022). BOUNDARY ISSUE IN THE TERMINO

22. Alijonovna, M. D. (2022). THE ROLE OF TERMS IN LINGUISTICS. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 9, 144-152.

23. BADIIY MATNDA QISHLOQ XO‘JALIGIGA OID TERMINLARNING USLUBIY XOSLANISH IMKONIYATLARI

MD Alijonovna Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 3, 169-174

24. Akbarova, M. (2021). FOLKLORE IN PRIMARY EDUCATION-THE LINGUISTIC FEATURES OF TEACHING PROVERBS. In Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и

25. AKBAROVA, M. BADIIY MATNDA UCHRAYDIGAN G ‘AYRIODATIY BIRIKMALARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI. Comparative Turkish Dialects and Literatures, 1(2), 25-31.

26. Shavkatovna, A. M., & Nurjahon, M. (2023). BADIIY MATNDA UCHRAYDIGAN GAYRIODATIY BIRIKMALARNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI. Ustozlar uchun, 15(1), 266-270.

27. Shavkatovna, A. M. (2023). G’AYRIODATIY BIRIKMALARNING BADIIY MATNDA LINGVOPOETIK AKTUALLASHUVI. Journal of Integrated Education and Research, 2(3), 129-132.

28. Shavkatovna, A. M. (2023). Morphological Characteristics of Unusual Compounds Found in Literary Text. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(3), 83-88.

29. Shavkatovna, A. M. (2023). Morphological Characteristics of Unusual Compounds Found in Literary Text. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(3), 83-88.

30. Shavkatovna, A. M., & Sultonova, Y. N. (2023). BADIIY MATN LINGVOPOETIKASIDA GAYRIODATIY BIRIKMALARNING AHAMIYATI. Ustozlar uchun, 15(1), 271-276.

31. Akbarova, M. S. (2022). LINGUOPOETIC FEATURES OF UNUSUAL COMPOUNDS IN THE LITERARY TEXT. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 3(05), 73-76.

32. Akbarova, M. S. Features of Linguopoetic Analysis of Literary Text. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.

33. Shavkatovna, A. M., & Nurjahon, M. (2023). BADIIY MATNDA UCHRAYDIGAN GAYRIODATIY BIRIKMALARNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI. Ustozlar uchun, 15(1), 266-270.

34. 1. Nizomiddinova, D., & Vasilakhon, I. (2020, June). ABOUT COMBINED TOPONYMS IN THE FORM" OT+ VERB" AND" VERB+ OT". In *Archive of Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 128-129).

35. 2. Nosirovna, N. D. (2022). ABOUT SOME ANTHROPOOYKONYMS OF FERGANA VALLEY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(12), 1124-1131.

36. 3. Nosirovna, N. D. (2022). Regarding the Study of the Simple Names of the Fergana Region According to the Morphological Structure. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*, *1*(5), 82-85.

37. 4. Nosirovna, N. D. (2022). Anthropotoponyms are a priceless treasure of our language, a monument of our history. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, *3*(02), 16-19.

38. 5. Nizomiddinova, D., & Vasilakhon, I. (2020, June). ABOUT COMBINED TOPONYMS IN THE FORM" OT+ VERB" AND" VERB+ OT". In *Archive of Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 128-129).

39. 6. Ubaydullaevna, N. S., Mehmonalievich, T. A., Mamirovna, H. K., & Nosirovna, N. D. ON THE PRINCIPLES OF CATEGORIZATION OF WORDS.

40. Tolipov, R., & Yusupov, M. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE FORM OF EDUCATION IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF THE LESSON. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(12), 1633-1637.

41. Yusupov, M. M. (2021). Educational practice as a tool in the formation of professional competence of future primary education teachers. *International Journal on Orange Technologies*, *3*(4), 301-305.

42. Yusupov, M. M. (2022). The issue of scientific and methodological support of students during the period of continuous educational practice. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(09), 209-213.

43. Mamadalievich, Y. M., & Mamasolievich, T. R. (2022). THE NEWSPAPER" SADOI FERGHANA" IS THE NEWSPAPER OF THE FERGANA REGION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(12), 1236-1240.

44. Yusupov, M. M. (2022). FEATURES OF THE ORGANIZATION AND CONDUCT OF EDUCATIONAL PRACTICE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(06), 195-200.

45. Yusupov, M. M. (2023). The Methodology of Organizing and Conducting the Learning and Meeting Activities of Future Elementary Class Teachers. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, *2*(3), 50-57.

46. Muhsinjon, M. Y. (2023). IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IN THE CONDITIONS

OF MODERNIZATION OF HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATION. *Procedia of Theoretical and Applied Sciences*, *5*, 9-16.